

## BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Xaydarova Zebo Shonazarovna**

*Navoiy viloyati Zarafshon shahri*

*1-AFCHO'IDU maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada dars jarayonida pedagogik ta'limning ahamiyati, interfaol usullardan foydalanishda darsning maqsadi aniq namoyon qilinishi hamda ko'zlangan natijaga sifatli va tez erishilishi haqida gap boradi. Bundan tashqari maqolada ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini afzalliklari shuningdek, kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi, o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhimligi ham ta'kidlangan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogika, texnologiya, innovatsiya, pedagogik yangilik*

Inson shaxsi kamolatida ma'naviy bilimlar bilan birga dunyoviy ilmlarning ham o'z o'rnini bor. To'g'ri o'zbek pedagogikasining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarida milliy urf-odatlarimiz, e'tiqodimiz, dinimiz asosidagi tarbiya usullaridan keng foydalaniladi. Ya'ni ustoz-shogird an'anasi buning yorqin isbotidir. Bu metodning mazmuni shundan iboratki, o'quvchi o'ziga munosib ustoziga shogird tushib uning qarashlarini, bilimlarini egallaydi. Yoki ma'naviy darslarda buyuk ajdodlarimizning gavharga teng boy merosi o'rganiladi. Xuddi shunday dunyoviy bilimlarni, ayniqsa rivojlanib borayotgan fan texnikaning yangi bosqichi-innovatsion texnologiyalarni egallashda esa albatta ushbu texnikalarning usuli va qo'llanmasini puxta o'rganish lozim. Shunday ekan pedagogik texnologiya bu jarayonda asqotadi. Xosh pedagogik texnologiya nima? O'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati qanday? Darhaqiqat, ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchilligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar. Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflayotgan mablag'lar qay darajada o'zini oqlashini va axborot hamda masofaviy ta'limni rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini yetarli darajada bilishlari shart. Ko'p hollarda "ta'limning kompyuter texnologiyalari" iborasi axborot texnologiyalari" iborasi bilan almashtirib yuboriladi. Bu o'rinda asosiy an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta'minlashiga qodir tizim azarda tutilgan. Bu holat so'nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi.

Ongga yetib kelayotgan axborotlar shaxsning mavjud madaniy - ma'rifiy muhitga moslashuvi jarayonida qay tarzda aks yetilishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta'lim - tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishimiz

lozim. Nihoyat ular “axborot asri” deb e’tirof etilayotgan adabiyotlarda “Yangi tartibqoida”, “Yangilik”, “Innovatsiya” tushunchalarining ma’noviy mazmun kasb etadi. Yangilik - bu texnik, texnologik ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. U pedagogik katigoriya sifatida ta’limga yangilik kiritishni anglatadi, usullar, vositalar, yangi konsepsiyalar, yangi o’quv dasturlari, tarbiya usullari va boshqalarni kiritish hamda qo’llashdir. Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirish uchun imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta’minlashi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo’l ochadi. Ro’y berayotgan sifat o’zgarishlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda “O’rganish” ning birlamchi jarayonlarini an’anaviy metodik va o’qitish vositalari qolipiga sig’may o’qituvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi.

Yangi metodikalarni talab etadigan texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovisual vositalar mavjudki, ular zamonaviy pedagogik texnologiyani real voqe’likka aylantirmoqda. Avvalo, o’quvchilar intellektual salohiyatini oshirishda bo’lajak o’qituvchilarni innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasidagi bilimlarini oshirish lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik texnologiya bu ta’lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo’yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog’liqligini hisobga olgan holda, o’qitish va bilimlarni o’zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli usuli. Darhaqiqat, yangi innovatsion usulda o’quvchisining fe’l-atvoriga qaramay, o’qituvchi o’quvchisini mustaqil fikrlashga, kuzatishga, xulosa chiqarishga o’rgatishi kerak. O’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi natijalarga erishish kerak:

- o’quvchilar dunyo haqida bilish usullaridan voqif bo’ladi;

- mavzu bo’yicha qo’shimcha manba bo’ladi;

O’qituvchi o’quvchilarning mehnatini mustaqil tashkil etishga, o’zini-o’zi tarbiyalashga yordam beradi;

- axborot manbalari: katalog, internet, elektron o’quv adabiyotlardan foydalanadi.

- aloqa vositalari elektron pochta, chat xonalari, yangiliklar guruhi forumlaridan foydalanishga erishadi.

- multimedia vositalaridan xabardor bo’ladi.

Darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish quydagicha natija beradi.

Birinchi, ta’lim xizmatlaridan foydalanishda tafovut kamayadi. Mintaqaviy ta’lim imkoniyatlar tezligi oshadi. Interaktiv usullar orqali o’qitish va muloqotli ta’lim berish, standart o’qitishni boyitadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’tilgan darslar jarayonni jadallashtiradi, rivojlanish potinsialini yuqori darajaga ko’taradi. Dars mazmunini chuqur va keng miqyosda o’zlashtirishga yordam beradi. Interaktiv usullar esa o’quvchilarda qiziqishini oshiradi, bir vaqtning o’zida guruh barcha o’quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi. O’quvchilar orasida mustaqil fikr va bilimiga nisbatini shakllantiradi. Amaliy ko’nikmalarni jadallashtiradi. Interfaol usullardan biri “doira”, “Akvarium”, “Muzyorar”, “Mozaika”, “Klaster”, “Suratli dedaktika”, “Zanjir” va h.k.

Masalan, doira usulida o'quvchilar doira shaklida o'tirib, turli mashqlarni bajarishadi. Bu usulning o'quvchilarni qator qilib o'tkazish usulidan qulay tomoni, hech bir o'quvchi o'zini ajratilganini, his qilmaydi. Har bir o'quvchi pedagog nazaridan chetda qolmaydi.

“Muzyorar” usulidan maqsad ishtirokchilarni o'zaro tanishuvlari uchun erkin muhit yaratiladi. Bunda o'quvchining o'zini tutishi, guruhda o'zaro ishonch yaratishga ko'maklashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy, Maxbub-ul kulub, Asarlar. 15 tomlik. 13tom. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta'lim markazi, 1999. – 55 b.